

O'quvchilarni maktabga moslashuvini o'rganish va ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshirish

Buxoro viloyati Romitan tumani 36 -maktabning psixologi

Bozorova Robiya

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni maktabga moslashuvini o'rganish va ilm olishga qiziqishini oshirish haqida yozilgan .

Kalit so'zlar: o'quvchilar, innovatsion texnologiyalar, motivatsiya berish, metodikalar.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifa –chuqur va mustahkam bilim berish savodli va ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashdir. Insonni har tomonlama tarbiyalaydigan pedagog uni har tomonlama bilishi, tushunishi kerak. Ushbu fikrlarga tayangan holda psixolog sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining biologik va psixik jihatdan rivojlanganligi, bilim olishga qay darajada tayyorligi, qiziquvchan ishonuvchanligi ,tasavvur ko'lami, hayolining yorqinligi, idrokining o'tkirligi maktab ta'limiga moslashib borish jarayonini ochib berishni maqsad qilib oldim. O'quvchining o'rganish motivlarini aniqlash.Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga katta qiziqish,quvonch va ishtiyoq bilan kelishadi, lekin birinchi chorak yakuni davridayoq ayrim o'quvchilarda bu qiziqishlar sekin –asta susayib borishi kuzatiladi.”Uyda yaxshiroq edi “tushunchasi kengayib boradi. Bu davrda maktab psixologi tomonidan Giznburg usuli bo'yicha o'rganish motivlarini aniqlash metodikasidan foydalanish mumkin.Bu metodika o'quvchilarida o'qishga rag'batlantiradigan turli motivlarni aniqlaydi. Yuqori baho olishga intilish, o'yinlarga kuchliroq qiziqish va bilim olishning xilma-xil usullariga bo'lgan munosabatini

“Personifikatsiya qilish” tamoyili asosida o’rganadi. Maktab psixologi bu metodikani to’liq tushunib olishi, rasmi varoqlarni o’quvchilarga bo’yatishdan avval bolalar tilida qiziqarli to’qima hikoya qilishi va tushuntirishi talab etiladi. Varoqda rasm joylashgan bo’lib, hikoyaga mos bo’lgan, o’zi yoqtirgan rasm o’quvchi tomonidan rangli qalamlarda bo’yab chiqiladi. O’quvchilardan olingan metodika natijalarini baholash sifatli darajada amalga oshirilishi lozim. 2-ta’limiy, 4 – pozitsiyaviy, 6-baho raqamli rasmlarni tanlagan o’quvchilarda maktabga, yangi muhitga moslashuv normal kechayotganligi, 1-tashqi, 3-o’yin, 5-ijtimoiy raqamli rasmlarni yoqtirgan va bo’yagan o’quvchilarda moslashuv jarayonida qiyinchilik belgilari namoyon bo’layotganligi sababli psixolog, o’qituvchi, ota-ona ko’magi zarur va muhimdir. O’quvchining ichki va tashqi motivatsiyani aniqlash. O’quvchilarda tashqi motivatsiyani oshirilishi ichki motivatsiyani undashga harakatlanmaydi. Ota-ona tomonidan bolaga beriladigan mukofotlar, rag’batlantirishlar tashqi motivatsiyani kuchaytiradi, xohish istaklarni amalga oshirish uchun bola oson yo’lni topishga intiladi. Harflarni o’rganish jarayonida ongli o’qishga nisbatan so’zlarni yodlab olgan o’quvchining qo’li boshqa harfda-yu yodlab olgan so’zlarini o’qib beradi. Tashqi motivatsiya kuchaytirish bu qiziqish va muammoni hal qilishning ijobiy usulini emas, balki ishonchli va qisqa yo’lni tanlashga undaydi, o’zini o’zi himoyalash instinktni kuchayib borishiga sababchi bo’ladi. Ichki motivatsiya haqida kamdan –kam fikr yuritiladi. O’qituvchilarning, otanalarning samimiy xohish istaklarini tushuntirish uchun “Istayman” iborasini bolaga turli usullar bilan qo’llash lozim. Bolaning qaysi kasbni yoqtirishi, kelajakda kim bo’lishini so’rash, buning uchun nimalar qilish lozimligi haqida bola fikrini bilish muhimdir. Bola qaysi kasbni yoqtirsa shu kasb yo’nalishida to’qima ertaklar aytish, qaysi harflar yozuvi bo’yicha yozilishi yoki o’yinlar o’ylab topish ota – onalarning farzandlarini o’qishi jarayonidagi qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi. Mazmun, hamkorlik, tanlov. Bola o’qishga qiziqishini oshirish muvaffaqiyati asosan, ota-onaga bog’liq. Bola birinchi tushkunlikka tushganda harakat qilishni

to'xtatadi, injiq va qaysar bo'lib qoladi, lekin bola qiziquvchan faqat ularning mustaqilligini ta'minlash, individual yondashish, erkin harakat qilishga yo'l berish lozim. Bola o'zi xohlagan qiziqishlari bilan shug'ullansin, bu holatda u bajargan ishlarini rag'batlantirish qiziqishlariga e'tiborni kuchaytirish kerak. U qilayotgan ishidan o'zi zavq olishi ichki motivatsiyasini harakatga keltiradi. Bola ong osti burmalari sekin asta ochilib qiziqishlari doirasi kengayadi, o'quvchilarida kuzatilayotgan bu holat alifbedagi o'rganayotgan tovush va harflarni ongli o'qishga undaydi. Harflarni bir-biriga bog'lab bo'g'in hosil qilishda ota-ona ham o'qituvchi ham turli usullarni qo'llashi maqsadga muvofiqdir. So'zlarni bo'g'inlab o'rgatishda chapak chalish usulidan foydalanish mumkin. Har bir so'z oralig'ida o'ng yoki chap tarafga chapak chalish bola kayfiyatini ko'taradi. Rasmi kartochkalardan foydalanish-rasmdagi so'zni bo'g'inlab aytib berishini so'rash bola qiziqishini oshiradi. Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish. Mazkur bosqichda o'qituvchi yoki ota-onaning bolaga bo'lgan mehr –muhabbati zarurdir. Ruhiy dalda berish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi o'z resurslarini to'g'ri baholay olishi orqali shakllanadi “Siz sabrlisiz” , “Siz aqllisiz”, “Sizning tilingiz biyron”, “Siz barcha o'qishni va yozishni uddalaysiz” kabi psixik ko'mak ona yoki o'qituvchi tomonidan berib borilishi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Siz hayotimdagi eng kerakli insonsiz, siz mening uchun qadrlisiz, men sizsiz yasholmayman, hammamiz yaxshi ko'ramiz , sabr- toqatlisiz, miyangiz yaxshi ishlaydi, sog'lom va baquvvatsiz kabi mehrlil so'zlari psixik kuch beradi. Shu o'rinda “Psixologik vitaminlar” usulini qo'llash mumkin. Turli shakldagi va rangdagi stikerlarga ijobiy fikrlar yozilgan so'zlardan tanlaydi, ochib o'qiydi ruhiy dalda oladi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortib kayfiyati ko'tariladi. Bu usulni sinfda yoki uyda ham qo'llash samarali natija beradi. Bola qiziqishlarini o'quv jarayoni orqali bog'lash. 1-sinf o'quvchilariga maktab hayoti juda qiziq , chunki ularga bo'layotgan tadbirlar, kun tartibidagi o'zgarishlar juda qiziq tuyiladi. Har bir darsdagi yangi mavzu e'tiborini yanada kuchaytiradi. 1-sinf o'quvchilarida ichki motivatsiya kuchli bo'lganligi sababli o'qish, yozish o'zlariga qiziq bo'lganligi uchun ham o'qib

o'rganishadi. O'quvchilar ko'proq rasm chizishga qiziqishadi. Chizgan rasmlari orqali ham ularning ruhiyatini o'rganib olish o'qituvchi uchun ham qo'l keladi. Qalam chizgilari bosib chizilgan holat-bola bosim ostida ko'p tanbeh bilan katta bo'lganligini kuzatish mumkin. Qanday ranglardan foydalanganligi ham yaqqol misoldir. Badiiy kitoblarga qiziqtirish ham bola dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay tasavvuruni boyitib o'qish darajasini rivojlantiradi, lug'at boyligini va diqqat konsentratsiyasini rivojlantiradi. O'quvchida "Men shuni bajarishim kerak" motivining ustunligi. Ota-ona farzandini o'zidanda kuchli shaxs bo'lib kamol topishini xohlaydi. Bu borada bolaga barcha shart- sharoitlarni yaratish bilan birga o'qishni majburlash holatlari kuzatilib turadi. Kitobni majburan o'qiydigan bolalarga qanday munosabatda bo'lish kerak? Bola kitob o'qishni yoqtirmasligini sababini aniqlash lozim. Hamma bolalar ham kitob o'qishni birdek yoqtiravermaydi buning sabablarini o'rganish va e'tibor qaratish kerak. Bola uchun qiziq bo'lgan mavzulardagi kitoblar, sovg'a qilish, ularni kitob o'qishga rag'batlantirishning oson usulidir. Bolalar jurnallari qiziqarli bo'lib, unda rangli rasmlar, turli ertaklar, qo'shiqlar, o'yinlar o'rin olgan. Demak bolaning kitob o'qimasligiga har doim ham uning dangasaligi yoki uquvsizligi sabab emas. Aksincha, bola bilan birgalikda ishlaganda uning xohishlarini inobatga olish zarur. Bolani kitob o'qishga jalb qilgandan so'ng, bu uning muntazam bajaradigan sevimli mashg'ulotiga aylanishi uchun sinfda "Little librare" kichik kutubxona tashkil etish, rang-barang suratlarga boy, kichik hikoyalardan tashkil topgan kitoblarni va jurnallarni jamlash lozim. Chunki bola e'tiborini bir necha marotaba qaratgan kitoblarni ochib ko'rishga qiziqish uyg'onadi. Har bir yakunlangan kitob uchun kichik sovg'alar bilan siylash bolani yanada ruhlantiradi. O'qishga bo'lgan qiziqish va maqsad. Maqsad qilish ularga erishish o'z harakatlarini boshqarish o'ziga bo'lgan ishonch va o'ziga bog'liqligini anglashdan iboratdir. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengish va vazifalarni oxirigacha yetkazish qat'iyligini sekin asta o'tgatib borish samarali natija baradi. Haqiqiy qiziqish bosim bilan emas, balki yorqin taassurotlar bilan bog'liq, aks holda

o'rganishni yomon ko'rishga olib keladi. O'zgalarni hurmat qilish, bola tasavvurida yangi dunyo ochish, ijobiy fikrlashga o'rgatish bola dunyoqarashini kengaytiradi. Maktabdagi baholar o'quvchilarning shaxsini emas, balki bugungi bilimni baholash ekanligini o'qituvchi tushuntirib borishi lozimdir. Rag'batlantirish, maqtash doim ijobiy natija berib keladi. Bolalar tanqidni qabul qilmaydi- ularning miyasi faqat maqtovga javob beradi. Olimlar 8-9 yoshli bolalarning miyasining mas'ul bo'lgan zonalarini o'rganib chiqishib, bola tanqid qilinganda hech qanday o'zgarish bo'lmaganligini aniqladilar. Bu yoshga o'z xatolaridan saboq ololmaydilar balki, 12-13 yoshdan boshlab o'spirinlar xatolarga emotsional munosabat bildirishadilar degan xulosaga kelishdi. O'quvchilar uchun foydali mahorat ma'lumotlar oqimiga moslashishdir. O'quvchilarga katta ma'lumotdan eng asosiysini olishga o'rgatishdir. Bu usuldan foydalanish unga muvaffaqiyat uchun eng muhim narsani topishga o'rgatishdir. Bolalarni o'ylashga o'rgatish tasavvurlarini kengayishiga olib keladi. O'qish va o'rganish esa ijobiy natijalar muvaffaqiyat yo'lidir. "Nafaqat muvaffaqiyatga erishish, balki hayotingizni mazmunli qilishga intiling", - Albertning bu fikrlaridan xulosa shuki, o'quvchilarning qalbidagi cheksiz kuchni uyg'otish, barcha qiyinchiliklarni yengib bilim olishga ishtiyoqini oshirish, yuksak salohiyat egalari bo'lishiga odatlantirish, kundan-kun yuksalayotgan yurtimizga mos farzandlar sifatida tarbiyalash, kelajakda o'z o'rniga ega bo'lish uchun hozirdan harakat qilishni o'rgatishdir. Shunday ekan o'quvchilarimizga kichik g'alabani his qilishni o'rgataylik garchi kichik g'alabalar katta muvaffaqiyatlar eshigidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xalq talimi vazirligi "Innovatsiya, texnologiya strategiya markaz-ITSM "Bolalarni o'qish va fikrlashga birga motivatsiya qilaylik".

2. Maktab psixologi telegram kanali

3. "Bolani o'qishga qanday qiziqtirish mumkin?". 2019y. Maktab psixologi telegram kanali

4. Nishonova Z.T, G. Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent-2003 yil